

## ABDULLA AVLONI'S CHARACTER IS MANGU BARHAYAT

*Rahimjonova Dilfuza*

*Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi,  
Faculty of professional education*

**Abstract:** This article is one of the famous representatives of Uzbek national culture, the enlightened poet, playwright, journalist, scientist, state and public figure Abdulla Avloni. For Abdulla Awlani, science and enlightenment are the only weapons, and it is also reflected that he wants to fight for socio-economic and cultural development in the country with the help of these weapons. Also, Awlani's contribution to philanthropy and patronage has been studied.

**Keywords:** Mergancha neighborhood, "Taraqqi", "Khurshid" newspapers, "First Teacher", "Second Teacher", "Turon".

Jahon sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri bo'lgan Markaziy Osiyo hududi jumladan, yurtimiz, O'zbekiston hududlari XX asrning boshlariga kelib, Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan edi. Ushbu suronli tarixiy davrlarda Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasining Turkiston general gubernatorligi tashkil topdi. O'sha yillar vatanimiz tarixida islohotchilik, birlashish va milliy tiklanish g`oyalarining tarafdoi bo'lgan ma'rifatparvar va taraqqiyparvar jadidlar harakati tobora kengayib bormoqda edi. O'sha kezlarda jadid namoyondalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodriy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Polvonniyoz Yusupov va boshqalar ma'naviy uyg'onish va mustaqillikni qo'lga kiritish eng oliy maqsad ekanligini anglab yetgan edilar.

Biz ulardan biri bo'lmish Abdulla Avloniyi hayoti va ijodini tadqiq etar ekanmiz, o'zbek davlatchiligi tarixida milliy-ma'naviy ma'rifatparvarlaridan biri, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida yashagan shoir, drammaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi, ta'lim sohasida o'zini o'chmas izini qoldirgan, xayriya va homiylik ishlarida o'z tashabbusini ko'rsatgan qo'shgan jaded namoyondasi Abdulla Avloniyidir.

Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkentning eski shahar Shayxontohur (Shayxantavur) dahasi Mergancha mahallasida oddiyxol bir oilada tug'ilgan. Avloniyning otasining ismi Miravlon, onasining ismi Fotima bo'lib, otasi to'quvchilik (bo'zchilik) kasbi bilan Yarmanka bozorida yoymachilik qilib bo'z va chit bilan savdogarchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lgan<sup>1</sup>. Avloniy boshlang'ich mакtabda o'qib, dastlabki xat-savodni O'qchi mahallada Akromxon

---

<sup>1</sup> Абдулла Авлоний Танланган асарлар: 2-жилд. 2-нашри – Тошкент: “Маънавият”, 2006. – Б. 287.

domladan o‘rgangan. U o‘z tarjimai holida yoshlik davridagi yo‘qchilik, qiyinchilik davrini xotirlab shunday deydi: "...shul vaqtarda (11-12 yoshimda) otam meni xatna to‘y qilib, qo‘lidagi bor-yo‘g’idan ayrilib, faqir xolga tushib qoladi. ... Yoshim 13 ga yetgach, yo‘qsullik menga ta’sir qildi. Yoz kunlarida mardikorlik qilib, ota-onamg’a biroz yordamda bo‘lib, qish kunlari o‘qir edim<sup>2</sup>. Ko‘rinadiki, shunday qiyin damlarda ham Avloniyi ilmga bo‘lgan qiziqishi uni kelajak sari yetaklagan, ammo u kelajakda qanday qiyinchiliklarga duch kelishini afsus bilmas edi.

Avloniy 14 yoshga to‘lganda Shayxontoxurdagi Abdumalikboy madrasasiga kelib, Mullo Umar Oxunddan dars o‘qiy boshlagan. 1894 yildan boshlab she‘r yozishga kirishgan. 18 yoshga to‘lgach, Avloniy mardikorlikdan qutilib, ustalik darajasiga erishib, g‘isht ustachiligi, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik kabi hunarlar bilan shug‘ullandi. Otasi vafotidan so‘ng 1900 yilda uylanib, oila boshlig‘i zimmasi yuklangach mehnat qilish ma’suliyati ikki barobar oshadi. Shu vaqtarda shoir mehnat ichida ulg‘ayganligi bois boylarga va mullalarga qarshi she‘rlar yoza boshladи. U madrasani to‘liq tugatmasdan tark etishga majbur bo‘ldi, lekin maorif ishlarini o‘zlashtirishda davom etdi. Turli gazetalar, usha davrda Rossiya imperiyasining turli shaharlarida chiqqan matbuot - gazeta va jurnallar bilan tanishib, ma'lumoti, savodini oshirdi. Usha davrlarda yerli xalqlar orasida eskilik-yangilik (jadid-qadim) atamasi shakllangan paytda Avloniy jadidchilar safiga qo‘sildi va 1904 yildan jadidlar jamoasida ishlashni boshladи. O‘z tashabbusi bilan "Jadid maktabi"ni ochib o‘qtuvchilik qila boshladи. 1906 yilda "Taraqqiy", "Xurshid" gazetalari bir necha yillik faoliyatini to‘xtatgach, 1907 yilda Avloniy tashabbusi bilan Sapyorniy ko‘chasida "Shuxrat" gazetasi chiqqa boshladи. Tahriryat ishlarida unga qozonlik tatar Rafiq Sobirov yordam berib turdi. Keyinchalik gazetaning faoliyati 10 sondan keyin ko‘plab ta‘ziylardan so‘ng to‘xtatildi. Avloniy bu bilan to‘xtab qolmadi, ya’ni 1908 yil sherigi, yozuvchi Ahmadjon Bektemirov nomiga "Osiyo" gazetasiga ruxsat olib, o‘z uyiga gazeta idorasini o‘rnatib yana ishslashda davom etdi. Afsuski, gazeta faoliyati 6 ta sonidan so‘ng hukumat tomonidan to‘xtatildi. Avloniy bundan ham umidini uzmasdan 1908 yilning o‘zida Mirobodda yangi usul maktabini ochib, muallimlikni davom ettirdi<sup>3</sup>. Bizningcha, Abdulla Avloniy ta’lim berishda bolalar uchun qanday bilimlar qo‘yilganligi bizning ertangi kunimizga bog‘liq degan fikr uni olg‘a yurishga undagan. Pedagogikaning muhim tarkibiy qismlari shaxsni shakllantirishga yordam berish, iste’dod va qobiliyatlarni rivojlantirish uchun sharoit

<sup>2</sup> Абдулла Авлоний Танланган асарлар: 2-жилд. 2-нашри – Тошкент: “Маънавият”, 2006. – Б. 287-288.

<sup>3</sup> Ўша йилларда Тошкентда 9 та “усули жадид” мактабидан 8 тасига хукумат томонидан рухсат берилиб, Авлоний рухсат олиши учун қийинчилик, азоб-уқубатлар билан 3 йил кетган. Абдулла Авлоний Танланган асарлар: 2-жилд. 2-нашри – Тошкент: “Маънавият”, 2006. – Б. 287.

yaratish. Bolalarni sevish, ularni eshitish va tinglash, qiyin savollarga javob topish va yangi yutuqlarni rag'batlantirish, muvaffaqiyatga ishonish uchun yordam berish muhimdir degan g`oya esa uning shiori, ertangi kunga ishonchi bo`ldi. Chunki ayrim ulamolar va ruhoniylar hamda hukmron hukumat tomonidan ko`rsatilayotgan qarshiliklarga qaramay o`z manfaatidan ko`ra xalq millat manfaatini ustun qo`ydi.

Avloniy millatni hor qilayotgan bu jaholatdan qutqarmoqlikning yo`lini ilm va uni beruvchi maktabdan izlash kerak, degan fikrni ilgari surdi:

**Hamma xursandlikni ma'danidur ilm, ey o`g`lon,**  
**Hamma fazlu qaramni manbaidur ilm, ey o`g`lon,**  
**Hamma xo`blarni xo`bin maskandir ilm, ey o`g`lon,**  
**Hamma Islom elini masnanidur ilm, ey o`g`lon,**  
**Qo`lingga bir kun muhri sulaymonni berur maktab,**  
**Shahodatnomai firdavsi g`ilmonni berur maktab<sup>4</sup>.**

Avloniying ijodida, she`rlarida o`z zamonasidagi ayrim ota-onalarning farzandiga bo`lgan etiborsizligidan kuyunib yozgan bo`lsada, lekin bugungi ayrim ota-onalarga ham uning she`rlari tegishli desak adashmagan bo`lamiz. O`sha og`ir vaqtarda Abdulla Avloniy maktab o`quvchilari uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912), «Tarix», «Turkiy Guliston yoki axloq» (1913) kabi zamonasi uchun yangilik bo`lgan darsliklarni yozgan.

So`nggi yillarda yurtimizda ayollarga bo`lgan e`tibor va ishonch kuchayib bormoqda. **“Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga bo`lgan munosabati bilan belgilanadi<sup>5</sup>”** - deb bejiz ta`kidlamagan edi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.

Ta`kidlash joizki, ayollarning huquqlarini kengaytirish, ularning ta`lim olishi masalasi mahalliy ziyolilar, jumladan jadidlar tomonidan ham jamiyat oldidagi dolzarb masala sifatida qaralgan. Bu muammo to`g`risida Avloniy quyidagilarni ta`kidlagan edi: Nima uchun biz hech narsa qilmayapmiz ... bizning qizlarimizni asirlikda ushlab turgan uyqudan uyg`onmaymiz, davrimizning madaniyatsizligidan, johilligidan voz kechmayapmiz. Afuski bunday muammolar bizda haligacha saqlanib kelmoqda. Shuni alohida ta`kidlash joizki, xotin-qizlarni savodsizligi kelajagimiz savodsizligi bo`lishi mumkin, zero uyda farzandlarimiz bilan ko`proq ular vaqt o`tkazishadi, ular kitob o`qib berishadi. Agar ayollarimiz savodli bo`lsa farzandlarimizga qanday kitob o`qishni va qanday kitob olib berishni biladi. Ko`p kitob o`qigan, savodli farzand esa kelajagimiz bunyodkoridir.

XIX asr so`nggi choragida Turkistonda xayriya munosabatlari haqida gapirilganda mahalliy aholi boy qatlaming faoliyati yuqori ahamiyat kasb etgan

<sup>4</sup> Nomozova.K. Jadidchilik: muammolar, islohot va qarashlar. Toshkent: “Turon Iqbol”, 2010. - B. 93.

<sup>5</sup> Mirziyoyev. Sh. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. Toshkent: “O`zbekiston”, 2017. - B. 343.

bo'lsa, XX asr birinchi choragida Turkistonda mahalliy ziyolilar, jadidlar va ma'rifatparvarlar tomonidan xayriya jamiyatlari tashkil etila boshladi. Masalan, Abdulla Avloniy o'zining tarjimai holida keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, biz uning Turkiston xalqining birligini ta'minlash va yosh avlodni ma'rifatli qilish borasida bir nechta o'rtog'i bilan 1909 yil 12 mayda "Jamiyat xayriya" ochganligiga guvoh bo'lamiz. Jamiyat tashkil qilingach, Ubaydulla Xo'jaev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov kabi huquqshunoslar tomonidan jamiyatning 41 moddadan iborat nizomi ishlab chiqilgan. Ahamiyatli jihat shuki, "Jamiyat xayriya" tashkilotining asosiy vazifalari qatorida aholining barcha qatlamlarini o'qitish uchun maktablar tashkil qilish, kambag'al bolalar va yetimlarga homiylik qilish, turli Mehribonlik uylarini tashkil qilish, talabalarga yordam ko'rsatish belgilangan. Abdulla Avloniy ma'rifatparvar jadid nafaqat ilm, dars, maorif ishlari bilan balki muhtoj, g'arib, nochorlarga yordam berish, yoshlarni ma'rifatli qilishda xorijga o'qishga yuborish uchun ko'maklashish kabi xayrli ishlar bilan ham shug'ullanib, jamiyat tashkil etgan. Uning o'z mablag'i, huzur-halovatidan kechib, xalqqa yaxshilik ilinjida, o'z xalqini savodli, ma'naviyatli va madaniyatli qilish uchun jonbozlik ko'rsatishga uringan.

Abdulla Avloniy ijodiy faoliyatini yoritar ekanmiz, uning 1913 yildan boshlab xalqni madaniyatli qilish maqsadida teatr sohasiga kirishib, boshliq sifatida Turkistonning bir nechta shaharlariga borib, teatr sohasini rivojlantirishga intildi. Masalan, ma'rifatparvar tomonidan 10 ga yaqin Ozarbayjon pyesalari o'zbekchaga tarjima qilinib, sahnalashtirilgan, shuningdek, o'zi 3 ta pyesa yozib, "Turon" nomli teatr xayriya jamiyatiga asos soldi.

### Xulosa.

Oradan ancha vaqt o'tgan bo'lsa ham Abdulla Avloniy jadid ma'rifatparvarimizning ta'lim-tarbiya, ilm-u ma'rifat haqidagi qimmatli fikr-mulohazalari, uning olg'a surgan ezgu g'oyalari o'z kuchini yoqotgani yo'q. Jumladan, Abdulla Avloniyning bildirga fikrlari bugungi davrning dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi. O'zbek jadidlari orasida usuli jadid maktablarining ilk tashkilotchilaridan bo'lgan Abdulla Avloniy faoliyati general gubernatorlik, mahalliy mutaasiblar ta'qib va ta'ziyqlariga qarshi keskin kurashlar jarayonida kechdi. Usuli jadid maktablarining o'lka bo'ylab keng quchoq yoyishda Avloniy tomonidan tashkil etilgan xayriya tashkilotlari, shirkatlar, matbaa, maktab va kutubxonalar, nashriyotlar katta ma'naviy va iqtisodiy madadkor bo'ldi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Abdullayev D. O‘zbekistonda xayriya va homiylikning rivojlanish tarixi. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019. -B. 56-57.
2. Nomozova.K. Jadidchilik: muammolar, islohot va qarashlar. Toshkent: “Turon Iqbol”, 2010. - B. 93.
3. Mirziyoyev. Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent: ”O‘zbekiston”, 2017. - B. 343.
4. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Toshkent: O‘zbekiston. 2019. – B. 491.
5. Abdullayev D. O‘zbekistonda xayriya va homiylikning rivojlanish tarixi. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019. -B. 55.
6. Абдулла Авлоний Танланган асарлар: 2-жилд. 2-нашри – Тошкент: “Маънавият”, 2006. – Б. 287.
7. Абдулла Авлоний Танланган асарлар: 2-жилд. 2-нашри – Тошкент: “Маънавият”, 2006. – Б. 287-288.